



THE ROLE OF JAPAN IN THE INTEGRATION ASSOCIATIONS IN THE ASIA-PACIFIC REGION

B. S. Suyunova

PhD student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: integration, RCEP, CPTPP, regional stability, cooperation, foreign policy, strategy

Received: 11.05.23

Accepted: 13.05.23

Published: 15.05.23

Abstract: This article analyzes the integration processes taking place in the Asia-Pacific region in the last decade, the regional policy conducted by the Japanese government and their impact on the system of international relations. Although the processes of integration in the region started a few years ago, two major projects that have emerged in recent years - The Comprehensive and Progressive Agreement for Trans-Pacific Partnership and the Regional Comprehensive Economic Partnership - have been briefly described in academic studies or local academic literature. With the help of scientific sources in Japan and other foreign countries, the opinions of politicians and experts about the above integrated associations were analyzed. Historical, systematic, comparative, and content analysis methods were used to determine the role and importance of the two projects in Japan and other countries. In Japan, as in other countries, regional policy is complex in terms of goals and content, which is largely ensured by its coordination with other areas of state economy regulation. Also, this article highlights the modern strategy of Japan's regional policy, focusing on a number of factors.

**OSIYO-TINCH OKEANI MINTAQASIDAGI INTEGRATSION BIRLASHMALARDA
YAPONIYANING O'RNI****B. S. Suyunova***doktorant**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: integratsiya, RCEP, CPTPP, mintaqaviy barqarorlik, hamkorlik, tashqi siyosat, strategiya

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'nggi o'n yillikda Osiyo-Tinch okeni mintaqasida sodir bo'layotgan integratsion jarayonlar, Yaponiya hukumati tomonidan olib borilayotgan mintaqaviy siyosat va ularning xalqaro munosabatlar tizimiga ta'siri tahlil qilingan. Garchi mintaqadagi integratsiya jarayonlari biroz vaqt oldin boshlangan bo'lsa-da, oxirgi yillarda vujudga kelgan ikkita yirik loyiha – Trans-Tinch okeani hamkorligi bo'yicha keng qamrovli va progressiv bitim hamda Mintaqaviy kengaytirilgan iqtisodiy hamkorlik haqida ilmiy tadqiqotlar yoki mahalliy ilmiy adabiyotlarda qisqacha bayon qilingan. Yaponiya va boshqa xorijiy mamlakatlardagi ilmiy manbalar yordamida siyosatchilar va ekspertlarning yuqoridagi integratsion birlashmalar haqidagi fikrlari tahlil qilingan. Ikki loyihaning Yaponiya va boshqa mamlakatlardagi roli va ahamiyatini aniqlashda tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy, kontent analiz metodlaridan foydalanilgan. Yaponiyada ham boshqa mamlakatlarda bo'lganidek, maqsad va mazmun jihatidan mintaqaviy siyosat murakkab bo'lib, bu ko'p jihatdan uning davlat iqtisodiyotini tartibga solishning boshqa sohalari bilan muvofiqlashtirilishi orqali ta'minlanadi. Shuningdek, ushbu maqolada bir qator omillarga e'tibor qaratgan holda Yaponiya mintaqaviy siyosatining zamonaviy strategiyasi yoritilgan.

**РОЛЬ ЯПОНИИ В ИНТЕГРАЦИОННЫХ ОБЪЕДИНЕНИЯХ АЗИАТСКО-
ТИХООКЕАНСКОГО РЕГИОНА****Б. С. Суюнова***Докторант**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: интеграция, ВРЭП, ЦТПП, региональная стабильность, сотрудничество, внешняя политика, стратегия

Аннотация: В данной статье анализируются интеграционные процессы, происходящие в Азиатско-Тихоокеанском регионе в последнее десятилетие, региональная политика, проводимая японским правительством, и их влияние на систему международных отношений. Хотя интеграционные процессы в регионе начались некоторое время назад, два крупных проекта, возникших в последние годы, – Всеобъемлющее и прогрессивное соглашение о Транстихоокеанском партнерстве и Расширенное региональное экономическое сотрудничество – кратко описаны в академических исследованиях или местных академических кругах. литература. С помощью научных источников Японии и других зарубежных стран были проанализированы мнения политиков и экспертов о вышеуказанных интегрированных объединениях. Методы исторического, систематического, сравнительного и контент-анализа использовались для определения роли и важности двух проектов в Японии и других странах. В Японии, как и в других странах, региональная политика сложна по целям и содержанию, что во многом обеспечивается ее согласованностью с другими сферами государственного регулирования экономики. Также в данной статье освещается современная стратегия региональной политики Японии, акцентируя внимание на ряде факторов.

KIRISH

Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi yangi integratsiya tuzilmalarining vujudga kelishi dunyoning boshqa mamlakatlaridagi hukumatlar proteksionizmga qaytayotgan bir paytda mazkur mintaqa davlatlari tomonidan savdoni liberallashtirish va integratsiyaga intilishning tasdig'idir. O'zining keng salohiyatga egaligi tufayli nafaqat Osiyoda, balki butun dunyoda savdo-iqtisodiy manzarani tubdan o'zgartirishi kutilayotgan bunday birlashmalar Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi iqtisodiy rivojlanish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarni egallab kelayotgan davlatlarni ham qamrab olganligi o'z oldiga qo'ygan rejalarini amalga oshirish imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy davrda Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi integratsiya jarayonlari ikki raqobatchi yirik loyihalar vujudga kelishi natijasida yanada jadallashib bormoqda. Bu loyihalar

Trans-Tinch okeani hamkorligi bo'yicha keng qamrovli va progressiv bitim (CPTPP – the Comprehensive and Progressive Agreement on Trans-Pacific Partnership) hamda Mintaqaviy kengaytirilgan iqtisodiy hamkorlik (RCEP – the Regional Comprehensive Economic Partnership)dir. Ushbu integratsion birlashmalar o'zining ulkan qamrovi tufayli nafaqat Osiyoda, balki butun dunyoda savdo-iqtisodiy manzarani tubdan o'zgartirishi kutilmoqda.

Trans-Tinch okeani hamkorligi bo'yicha keng qamrovli va progressiv bitim (CPTPP) erkin savdo shartnomasi bo'lib, jahon yalpi ichki mahsulotining 13 foizini tashkil qiluvchi 11 ta Osiyo-Tinch okeani davlatlari tomonidan imzolangan bo'lib, a'zo mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlar savdosi bo'yicha to'siqlarni kamaytiradi. A'zo davlatlar asta-sekin bir-birlarining mahsulotlariga deyarli barcha tariflar va import to'lovlarini bekor qilishga kelishib olishgan. CPTPPni imzolagan yetti davlat Mintaqaviy keng qamrovli iqtisodiy hamkorlik (RCEP)ning ham a'zolari hisoblanadi. RCEP dunyodagi eng yirik erkin savdo bitimi (FTA) bo'lib, jahon yalpi ichki mahsulotining 31 foizini tashkil etuvchi 15 ta davlatni qamrab oladi. CPTPPdan farqli ravishda, RCEP davlat korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tartib-qoidalarni, mehnat masalalari va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha qoidalarni o'z ichiga olmaydi [2].

2018-yil dekabr oyida kuchga kirganidan beri bir qancha qo'shimcha davlatlar CPTPPga qo'shilish uchun ariza topshirgan yoki qiziqish bildirgan. Shartnomaga kirish uchun mavjud imzolovchilar o'rtasida konsensus talab qilinishi va arizachilar har bir a'zo davlat bilan ishlashi kerakligi CPTPPga qo'shilish uzoq va murakkab jarayon ekanligini namoyon qiladi. Hozirgi kunga qadar Birlashgan Qirollik CPTPPga qo'shilish uchun ariza bergan birinchi ta'sischi bo'lmagan davlat bo'ldi. 2021-yil sentabr oyida CPTPP a'zolari Buyuk Britaniya bilan muzokaralar olib borish uchun Qo'shilish bo'yicha ishchi guruhini (AWG) tuzdilar va ishchi guruhning Buyuk Britaniya rasmiylari bilan birinchi uchrashuvi 2021-yil 28-sentabrda bo'lib o'tdi. Shundan keyin CPTPP-Buyuk Britaniya muzokaralari 2023-yil mart oyi oxirida yakunlandi. Shartnoma shu yilning yozida CPTPP vazirlari tomonidan tasdiqlanishi kutilmoqda. Buyuk Britaniya CPTPP talablarini bajarish uchun zarur bo'lgan islohotlarni amalga oshirgandan keyin va har bir CPTPP a'zosi kelishuvni o'z milliy qonunchiligida ratifikatsiya qilgandan so'ng, Birlashgan Qirollik CPTPPning 12-a'zosi bo'ladi [2]. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, mazkur hamkorlik 510 million kishini qamrab oladi, jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 11,2 trillion AQSh dollarini tashkil etadi [6].

RCEP muzokaralari 2012-yilda boshlangan va muvaffaqiyatli davom etgan. CPTPPning dastlab Trans-Tinch okeani hamkorligi sifatida, so'ngra 2018-yilda qayta ko'rib chiqilgan shaklida yakunlanishi RCEP hukumatlarini muzokaralarni yakunlashga undadi. Kelishuv bir yil oldin bo'lishi mumkin edi, ammo Hindiston Xitoy importining ko'payib ketishi ehtimoli yuqoriligi sababli paktdan chiqishga qaror qildi. Mazkur muzokaralarga Dehlining qo'shilmasligi haqidagi

qaroridan so'ng, qolgan 15 ta hukumat – ASEANning 10 ta a'zosi (Brunei, Kambodja, Indoneziya, Laos, Malayziya, Myanma, Filippin, Singapur, Tailand va Vetnam) hamda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) bilan erkin savdo shartnomalariga ega beshita hamkor davlat, xususan Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Avstraliya va Yangi Zelandiya – bitimni yakunladi [3].

Hamkorlik kotibiyati veb-saytida RCEP global mintaqada iqtisodiyot va siyosatni shakllantiradigan yangi savdo kelishuvi ekanligi ta'kidlangan. Ayrim xorijlik tahlilchilarning fikricha, RCEP mintaqa mamlakatlariga 2021-yilda koronavirus pandemiyasi yetkazgan iqtisodiy zarardan qutulishga yordam beradi, shu bilan birga "Osiyo asri"ning boshlanishiga ham ramziy ishora qiladi [4].

Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi ushbu yangi integratsiya tuzilmasining Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya, ya'ni dunyoning mos ravishda ikkinchi, uchinchi va o'n ikkinchi yirik iqtisodiyotlarini birlashtirgan birinchi savdo kelishuvi ekanligi alohida e'tiborga molik.

Tadqiqotchi olim Kistanovning fikriga ko'ra, RCEP Shimoliy Amerika erkin savdo bitimi (NAFTA) yoki Yevropa Ittifoqi (YI) kabi izchil iqtisodiy birlikni yaratish uchun asos bo'lish ehtimoli yuqori. Bitim 15 ta a'zo davlat uchun yagona savdo-sotiq qoidalarini yaratganligi ichki savdoni sezilarli darajada osonlashtiradi. Hozirda Osiyo mintaqasi mahsulotlarining aksariyati dunyoning boshqa qismlarida iste'mol qilinayotgan bo'lsa-da, RCEP ichki bozorni rivojlantirishni rag'batlantirishi kutilmoqda, bu esa Osiyo mamlakatlariga o'zlari uchun ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Bu jahon iqtisodiyoti faoliyatidagi tarixiy o'zgarishlarni ko'rsatadi [7, p.81].

Mintaqaviy keng qamrovli iqtisodiy hamkorlik bo'yicha muzokaralarni boshlashdan maqsad ASEANga a'zo davlatlar va ASEANning erkin savdo kelishuvi bo'yicha bitim tuzgan hamkorlari o'rtasida zamonaviy, keng qamrovli, sifatli va o'zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlik kelishuviga erishishdan iborat ekanligi ham mazkur birlashmaning rasmiy saytida keltirib o'tilgan. RCEP inklyuziv bo'lish muhimligini tan oladi, ayniqsa a'zo davlatlardagi ishlab chiqarish korxonalariga kelishuvdan foydalanish, globallashtirish, shuningdek, savdoni liberallashtirishdan kelib chiqadigan muammolarni yengish imkonini beradi. Shu bilan birga, RCEP ASEAN uchun ham, uning FTA hamkorlari uchun ham o'zaro manfaatli adolatli mintaqaviy iqtisodiy siyosatni ta'minlash majburiyatini oladi[4].

ASEAN rasmiy saytida keltirilganidek, 2022-yil 1-yanvarda - Mintaqaviy keng qamrovli iqtisodiy sheriklik (RCEP) bitimi Avstraliya, Brunei Darussalam, Kambodja, Xitoy, Yaponiya, Laos, Yangi Zelandiya, Singapur, Tailand va Vyetnam uchun kuchga kirganligi dunyodagi eng yirik erkin savdo hududi yaratishga yo'l ochadi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, kelishuv 2,3 milliard kishini yoki dunyo aholisining 30 foizini qamrab oladi, jahon yalpi ichki mahsulotining taxminan 30 foizini 25,8 trillion AQSh

dollarini tashkil etadi va jahon savdosining chorak qismidan ko‘prog‘i tovarlar va xizmatlar hamda jahon to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining 31%i -12,7 trillion AQSh dollarini tashkil etadi [3].

Yuqoridagi ikkita yirik loyihaning ta‘sischi a‘zolaridan biri hisoblanuvchi Yaponiyada mintaqaviy siyosatga alohida ahamiyat qaratiladi. Yaponiya birinchi marta 1980-yillarning oxirlarida iqtisodiy integratsiyaning mintaqaviy tuzilmasi tashabbuskori sifatida chiqdi. 1989-yilda Avstraliya bilan birgalikda mintaqaviy savdoni liberallashtirish masalalarini muhokama qilish uchun eng yirik platforma - APECni yaratish tashabbusi bilan chiqdi. Yaponiyaning institutsional qurilish sohasidagi faolligini mintaqaviy yetakchi sifatidagi ambitsiyalarining aksi sifatida emas, balki dunyoning boshqa qismlarida amalga oshirilayotgan NAFTA va YII integratsiya loyihalari muvaffaqiyatiga munosabati sifatida baholash mumkin. Buyuk savdo davlati sifatida Yaponiya erkin savdo zonalari atrofidagi “global o‘yin” dan chetda qolishdan qo‘rqar edi. Yaponiya savdoni liberallashtirishning global tendensiyalariga muvofiq amalga oshirilgan APEC loyihasidagi ishtirokining g‘oyaviy va qimmatli tarkibiy qismini amalda ifoda etmadi. [8, p.40]

Yaponiyaning Sharqiy Osiyo integratsiyasiga yangicha yondashuvi “ochiq mintaqaviylik” konsepsiyasida ko‘rsatilgan. Agar ilgari ushbu konsepsiya Yaponiya Tashqi ishlar vazirligining rasmiy hujjatlarida asosan APEK faoliyati tamoyillarini tavsiflash uchun ishlatilgan bo‘lsa, keyin Koidzumi ma‘muriyatining hukumatga kelishi bilan Yaponiyaning mintaqaviy nuqtai nazarini yoritish uchun ishlatila boshlandi. Keyinchalik, “ochiq mintaqaviylik” atamasi yapon rasmiylarining nutqlarida ko‘proq qo‘llanila boshlandi. Bundan tashqari, Yaponiyaning mintaqaviy qarashlarida “funktsionallik” tamoyiliga katta ahamiyat berilgan. Ushbu tamoyil mintaqada davlatlarining noan‘anaviy xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashish va iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashish, sog‘liqni saqlash, ekologiya, moliya, qaroqchilikka qarshi kurashish va boshqalarni qamrab olishda o‘zaro hamkorligini nazarda tutadi. [8, p.41]

Kelajakda Yaponiya inklyuzivlik tamoyiliga izchil amal qilib, mintaqaviy integratsiyaning barcha tuzilmalarida o‘z ishtirokini saqlab qolishni afzal ko‘rdi. Biroq, Tokio kelajakda o‘z siyosatini strategik maqsadlariga qarab, ba‘zi tuzilmalar bilan tanlab o‘zaro aloqada bo‘lishni va kerak bo‘lganda boshqalar bilan o‘zaro ta‘sir darajasini pasaytirishni afzal ko‘radi.

Xitoyning harbiy yuksalishi, Sharqiy Xitoy va Janubiy Xitoy dengizlaridagi qat‘iy siyosati Yaponiya tomonidan nafaqat o‘ziga tahdid, balki liberal qadriyatlarga asoslangan butun mintaqaviy dunyo tartibiga tahdid sifatida qabul qilina boshladi. Kuchlar muvozanatining Xitoy foydasiga o‘zgarishi Yaponiyani Xavfsizlik shartnomasi bo‘yicha AQSh bilan hamkorligi muhimligini qayta ko‘rib chiqishga majbur qildi. 2000-yillarning boshidan beri u Vashingtonni

mintaqaviy siyosiy va iqtisodiy tashkilotlar bilan yaqinroq hamkorlik qilishga undash yo'llarini izlab keladi [8].

Bir qator ilmiy izlanishlarda Yaponiya CPTPP ichidagi kuchlar muvozanatiga ega ekanligi ta'kidlanadi. Xususan, Yaponiya noyob strategik ustunlikka ega. U kelishuv doirasida yetakchi iqtisodiyotlar orasida eng ko'p diversifikatsiyalangan savdo sheriklik portfeliga ega edi. Kanada AQShga haddan tashqari bog'liq va Avstraliya eksporti Xitoyga sezilarli darajada moyil. Yaponiya CPTPP hamkorligi doirasida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha barcha global qiymat zanjiri (GVC) doirasida yetakchi hisoblanadi. Hududga eksport tarkibi bilan yaqindan tanishish shuni ko'rsatadiki, eksportning kamida 70 foizi qiymat zanjiri bilan bog'liq. Ushbu 70 foiz ichida Yaponiya ishlab chiqarish tarmog'ining turli darajalarida qiymat yaratish bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Yaponiya avtomobilsozlik sohasida va transport sanoatida, jumladan, yo'llar, poyezdlar va og'ir yuk ko'taruvchi uskunalarda qiymat yaratish bo'yicha yetakchilik qiladi. Bundan tashqari, Yaponiya ko'plab sanoat liniyalarini ishlab chiqarish uchun brending, ilm-fan va mashinalarni nazorat qiladi [1].

Umuman olganda, Yaponiyada ham, boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi, maqsad va mazmun jihatidan mintaqaviy siyosat murakkab bo'lib, bu ko'p jihatdan uning davlat iqtisodiyotini tartibga solishning boshqa sohalari bilan muvofiqlashtirilishi bilan ta'minlanadi. Asosan Yer, infratuzilma, transport va turizm vazirligi zimmasiga yuklangan milliy infratuzilmani yaratish, saqlash va modernizatsiya qilish sohasidagi siyosat an'anaviy va tabiiy ravishda mintaqaviy siyosat bilan chambarchas bog'liqdir. Yaponiyada qabul qilingan mintaqaviy rivojlanish bo'yicha barcha strategiya va rejalar har doim mamlakatning har bir fuqarosi uchun, qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, biznes sharoitlari va taqqoslanadigan qulaylik darajasini ta'minlash uchun hududni, shu jumladan megapolislarni ham, chekka hududlarni ham rivojlantirishni nazarda tutadi.

XULOSA

Shunday qilib, Yaponiya mintaqaviy siyosatining zamonaviy strategiyasini tahlil qilishda, birinchi navbatda, ijtimoiy, jumladan, demografik muammolarga e'tibor qaratiladi va fazoviy rivojlanish strategiyasining milliy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida joylashishiga e'tibor qaratiladi. Bir qator olimlar ta'kidlaganidek, Yaponiyadagi mintaqaviy siyosat to'liq ma'noda "siyosatchilar siyosati"dir. Biz yuqorida tahlil qilgan fazoviy rivojlanishning umumiy strategiyasi mavjud bo'lganda, mintaqaviy rivojlanishning turli jihatlari turli ijro etuvchi organlar – vazirliklar va idoralar tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan asosiy siyosat va strategiyalar orqali qo'llab-quvvatlanadi. Chunki davlat iqtisodiy siyosatining deyarli barcha sohalari doirasidagi har qanday loyihalar hududiy "bog'lanish" ga ega. Shuningdek, mintaqaviy siyosatning o'zi "tarmoqlararo" xususiyatga ega. Yaponiyada Tokio megapolisidan tortib eng

chekka prefektura va kichik shahargacha bo'lgan har qanday mintqa yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy majmua bo'lib, u yoki bu tarzda biznes rivojlantiriladi, davlat infratuzilmasi yaratiladi, innovatsiyalar olib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Grace, J. (2020). The CPTPP: a key strategic advantage for Japan to advance its leadership in the Pacific. University of British Columbia Asia Pacific Foundation of Canada. // https://sppga.ubc.ca/wp-content/uploads/sites/5/2020/07/Jaramillo_The-CPTPP-Japan-Grace-Jaramillo.pdf
2. Jeffrey J. S. (2023) Which countries are in the CPTPP and RCEP trade agreements and which want in? Peterson Institute For International Economics. // <https://www.piie.com/research/piie-charts/which-countries-are-cptpp-and-rcep-trade-agreements-and-which-want>
3. RCEP Agreement enters into force. [January 1, 2022.](https://asean.org/rcep-agreement-enters-into-force/) // <https://asean.org/rcep-agreement-enters-into-force/>
4. Regional Comprehensive Economic Partnership (RCEP). // <https://rcepsec.org/about/>
5. The Comprehensive and Progressive Agreement for Trans-Pacific Partnership (CPTPP). 06 April, 2023. // <https://commonslibrary.parliament.uk/research-briefings/cbp-9121/>
6. Trans-Pacific Partnership (TPP) Agreement Negotiations (2023). // https://www.mofa.go.jp/ecm/ep/page25e_000266.html
7. Кистанов, В. О. (2021). Новые интеграционные проекты в АТР и Япония. *Японские исследования*, (3), 76-89.
8. Стрельцов, Д. В. (2019). Японский регионализм эпохи Синдзо Абэ через призму ценностного подхода. *Мировая экономика и международные отношения*, 63(9), 38-49.